


"TASDIQLAYMAN"

"Shurtan GKM" MChJ

Bosh direktor o'rinnbosari

F. Kuvatov

"27" 05 2024 yil



## TEXNIK TOPSHIRIQ

"Shurtan GKM" MChJ ma'muriy binosi kirish qismiga led ekran va hajmdor yonuvchan harflarni o'rnatish xizmati

### 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

#### 1.1. Nomlanishi

Led ekran va hajmdor yonuvchan harflarni o'rnatish xizmati

#### 1.2. Xarid qilishning asosi va maqsadi

Asos: "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ ma'muriy binosining kirish qismiga bino nomlanishi haqida ma'lumot va qo'shimcha ma'lumotlar uchun led ekrani o'rnatish uchun Bosh direktor o'rinnbosari F. Kuvatovning 2024-yil 23-apreldagi 016/7781-sonli xizmat xati.

### 2. QO'LLANISH SOHASI

"Shurtan GKM" MChJ ma'muriy binosi kirish qismiga

### 3. QO'LLANILADIGAN ATROF MUHIT

- havoning nisbiy namligi 95% dan oshmasligi kerak;
- atmosfera bosimi 96 dan 106,7 kPa gacha;
- atrof-muhit harorati -27 dan +65 ° C gacha;
- Himoya darajasi IP65;

### 4. TEXNIK TALABLAR

#### 4.1 Asosiy texnik talablar

##### Led ekran va hajmdor yonuvchan harflar uchun talablar:

- to'plamming qismlari va ehtiyyot qismlari original zavod qadog'ida zarar yetmagan holda;
- avval foydalanishda bo'limgan;
- ishlab chiqarishdan to'xtatilmagan;
- kamida 2024 yilda ishlab chiqarilgan bo'lishi talab etiladi

##### Led ekran va hajmdor yonuvchan harflarni o'rnatuvchilar uchun talablar:

- bajaruvchi ushbu qurilmalarga xizmat ko'rsatish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida rasmiy vakilligi va servis markazlariga ega bo'lishi;
- shu kabi uskunlarni Respublikaning yirik tashkilotlariga yetkazib berish va o'rnatish bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lishi va kamida shu sohada 3 yildan ko'p vaqtidan buyon faoliyat yuritayotgan bo'lishi;
- bajaruvchi hisob raqamida faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli mablag'larga ega bo'lishi bankrotlik holatida bo'lmasligi, qayta tashkil bo'lish va sudlashuv jarayonlarida bo'lmasligi kerak.
- Salohiyatlari yetkazib beruvchilar ushbu texnik topshiriq talablaridan ham yaxshiroq ko'rsatgichlarga ega uskunlarni ham taklif etishi mumkin. Agar ushbu talablar bajarilmasa, Buyurtmachi taklifning texnik qismini ko'rib chiqishni rad etishga yoki Tovar va xizmatning mijozning talablariga muvofiq emasligi to'grisida xulosa chiqarishga haqli. Ushbu texnik topshiriq bajarilishi uchun qo'shimcha va mos keladigan qurilmalarni o'rnatilishiga ruxsat etiladi.
- yetkazib beruvchi tomonidan qurilmani ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar hamda qurilmaning texnik pasportini taqdim etishi lozim.

## 4.2 Texnik xususiyati

### 4.2.1 Led ekran 1 to`plam.

#### Umumiy xususiyatlar

Ma`muriy binoga kirish joyiga o`rnataladi. LED ekranlar modullardan iborat bo`lib, ular o`z navbatida birgalikda bitta dizayndagi to`plamga birlashtiriladi. Ushbu dizayn xususiyatiga asoslanib, har qanday o`lchamdagagi ekranni yaratish va mijoz uchun zarur bo`lgan variantni tanlash mumkin. HD Kontroller bilan birga. Ma`lumotlar, reklama, tabriklar, e`lonlar, yangiliklarni ko`rsatishda foydalanish uchun. Ekranga ma`lumotlarni noutbuk yoki smartfon orqali kiritiladigan bo`lishi kerak. Ijrochi tomonidan top`lam buyurtmachining binosiga yetkazilib, o`rnatalib, kamida 5 ta rolik tayyorlab ko`rsatib berilishi shart. Atrof muhit haqidagi sensorlar ham bo`lishi talab etiladi (Harorat, namlik, yorug`lik, havo bosimi, shovqin, shamol yo`nalishi, havo ifloslanish sensorlari bittada - Environmental Monitoring Sensor HD-S90). To`plam mustahkam o`rnatilishi va tashqi ta`sirlardan himoya chorasini ko`rish bajaruvchi zimmasida.

Konstruksion to`plam o`lchamlari:

Balandligi 100 sm

Uzunligi 505 sm

Foydalanish joyi: Bino tashqarisida

Piksel qadami: 5mm

Modul o`lchami: 160x160 mm

Chang va suvdan himoya: IP 65

Foydalanish muhitining harorati: -20°C dan +60°C gacha

Piksel qadami: P5 (5 mm)

Maksimal yorug`ligi:  $\geq 5000 \text{ cd/m}^2$



Kontrastligi: 4000:1

Quvvati: 850 watt (max) – 480 watt (med) / m<sup>2</sup>

Ko`rinish burchagi: 140x140 gradus

Svetodiod tipi: SMD2727

Foydalanish muhiti havo namligi: 10-95%



### 4.2.2 Hajmdor yonuvchan harflar va belgilar soni 57 ta:

#### Umumiy xususiyatlar

Ma`muriy binoga kirish joyiga o`rnataladi. "ADMINISTRATIVE BUILDING"- "SHURTAN GAZ KIMYO MAJMUASI"- "MA`MURIY BINO". Harflarning yuza va yon qismi yorug`lik tarqatish xususiyatiga ega bo`lishi lozim. Uzoq muddat mobaynida atmosfera ta`sirlariga chidamli materiallardan tayyorlanishi kerak. To`plam mustahkam qotirilishi uchun kerakli materiallar ijrochi tomonidan keltirib o`rnataladi. (Oq akril 3mm, akril ekstruder XT material, kulrang alyukobond, kabellar, elektr jihozlar va boshqalar) orqa qismi PVX 5mm, ochiq havoda uzoq muddatga xizmat qilishi uchun sifatli materiallardan tayyorlanishi, maxsus uskunada kesilgan, svetodiod lentada yoritilishi lozim.

Ijrochi tomonidan top`lam buyurtmachining binosiga yetkazilib, o`rnatalib, ishga tushirib ko`rsatib berilishi shart.

Harf balandligi: 25-30 sm

Fon o`lchamlari: balandligi 80 sm, uzunligi 439 sm -505 sm -534 sm.


Rang: Tillarang

Foydalanishda havo namligi: 10-95%

Kafolat muddati: 5 yil yoki 100000 soat

Foydalanish harorati: -20°C dan +60°C

Chang va suvdan himoya: IP 65



## 5. YETKAZIB BERISH VA QABUL QILISHGA TALABLAR

Mahsulotni qabul qilish xaridor hududida, qabul qilishga vakolathi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Yetkazib berilayotgan mahsulot yangi qadoqlangan va mahsulot nishoni bo'lishi hamda sifatsiz bo'lmasligi kerak. O'rtailgandan so'ng foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar ijrochi tomonidan buyurtmachiga taqdim qilinadi. Agar mahsulot texnik talablarga mos kelmasa xarid qiluvchi tomonidan qaytarilishi va yetkazib beruvchi tomonidan almashtirilishi zarur.

## 6. TASHISHGA TALABLAR

Avtotransport vositasi yuk tashish qoidalariga mos holatda bo'lishi shart.

## 7. KAFOLAT MUDDATI TALABLARI

Har bir mahsulotga yetkazib beruvchi tomonidan kamida 2 yillik kafolat muddati berilishi shart.

Uskunani ishga tushirgan paytdan boshlab kafolat muddatini hisoblashning boshlanish vaqtini. Ishtirokchi o'z mablag'lari hisobidan va buyurtmachi bilan kelishilgan muddatlarda kafolat muddati davomida aniqlangan etkazib beriladigan asbob-uskunalar, materiallardagi har qanday nuqsonlarni bartaraf etishi shart.

Uskuna ishdan chiqqan taqdirda, ishtirokchi o'z vakilini kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi dalolatnomani tayyorlashda qatnashish uchun yuborishi, ularni bartaraf etish tartibi va shartlarini yozma xabarnoma olingan kundan boshlab 7 kundan kechiktirmay kelishishi shart. Mijoz bunday holda, kafolat muddati tegishli ravishda nuqsonlarni bartaraf etish muddatiga uzaytiriladi

## 8. XAVFSIZLIK TALABLARI

Mahsulotni ishlatalish, saqlash va yo'q qilish paytida xavfsiz bo'lishi kerak.

*Tayyorladi :*

**OBSG rahbari:**

**M. Boykobilov**

*Kelishildi:*

**IBX boshlig'i:**

**T. Diyorov**

**Bosh metrolog:**

**H. Mahmudov**

**AKT xizmati boshlig'i:**

**R. Normatov**

**MXM boshlig'i:**

**A. Do'stmirzayev**

**MXM ta'minotchisi:**

**B. Bozorov**

**MTRB muxandisi:**

**Sh. Nizamov**









